

LISONIY PARADIGMA. PARADIGMATIK MUNOSABAT VA UNING XUSUSIYATLARI

Ziyadullayeva Madina Mahmarejab qizi

SDCHTI, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqola lisoniy birliklar o‘rtasidagi paradigmatic, munosabat, uning ahamiyati va xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: munosabat, paradigma, paradigmatic munosabat.

Abstract: This article is devoted to the analysis of the paradigmatic relationship between linguistic units, their importance and features.

Key words: relation, paradigm, paradigmatic relations.

Borliqdagi har bir narsa, shaxs bir-biri bilan qandaydir munosabatga kirishadi. O‘sha munosabatga ko‘ra ularning hayotdagi vazifalari namoyon bo‘ladi. Masalan, turmush qurgan ayol eri bilan er-xotinlik munosabatida, bu unda xotinlik vazifasini yuzaga chiqaradi. Va er-xotin endi bir-birining hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xuddi shunday har bir inson boshqa insonlar bilan, yoki narsa hodisalar bilan ma’lum bir munosabatda bo‘ladi.

Munosabat so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, munosiblik, muvofiqlik; joizlik; qarindoshlik; aloqadorlik kabi ma’nolarni anglatadi. (1) Falsafada ham munosabat tushunchasi borliqdagi yoki muayyan sistemadagi elementlarning bir-biriga o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro joylashishini ifodalaydi. Tilshunoslikda ham har bir element bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan, bir-birini taqazo qiladi. Masalan harflarning o‘zar ketma-ket joylashuvi ularning so‘z qilib shakllantiradi, ot va fe’lning ega-kesimlik munosabati asosida bir-biriga bog‘lanishi gapni hosil qiladi. Gaplar mazmunan bir-biriga bog‘lanib matnlar hosil bo‘ladi. Ko‘rib turganimizdek tilning eng kichik birliklaridan katta birliklarigacha bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan. Tilshunoslikda munosabatning bir nechta ko‘rinishlari mavjud. Ushbu maqolamizda lisoniy birliklar o‘rtasidagi paradigmatic, sintagmatik va iyerarxik munosabatlarni tahlil qilamiz.

Tilshunoslikda lison atamasi jamiyatda avlodlar tomonidan tayyor holga keltirilgan insonlar ongida mavjud, nutq uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan birliklar, hamda birliklarning o‘zaro bir-biriga birikish qonuniyatlarni anglatadi. Lisoniy birliklar va birikish qonuniyatlari farqlanadi. Har qanday lisoniy birlik psixofizik tabiatga ega bo‘lib, lisoniy birliklarning fizik xususiyati ularning shaklga egaligini, psixik holati esa ularning ma’noga egaligi va tildagi vazifasini bildiradi. Lisoniy birliklar kishilar ongida bir tizim shaklida namoyon bo‘ladi, shu sababdan bir lisoniy birlik boshqasini eslatib turish xususiyatiga egadir. Masalan, “olma” leksimasi “olcha, olxo‘ri, shaftoli, o‘rik” kabi leksemalarni, inglizcha “face” leskemasini esa “head (bosh),

nose (burun), ear (quloq)” kabi leksemalarni eslatadi. Chunki ular ongimizda bir-biriga bog‘liq holatda yashaydi. Bir-birini taqozo etadigan umumiy belgilarga ega, ammo o‘ziga xos belgi va xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi lisoniy birliklar tizimi paradigm deb nomlanadi. “Paradigma” atamasi grekcha “paradeigma” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “namuna, misol, model” degan ma‘nolarni anglatadi. Paradigmani hosil qiluvchi lisoniy birliklar paradigma a‘zolari deb ataladi. Paradigmalar bir lisoniy sathga mansub bo‘lib, kamida ikkita a‘zoga ega bo‘ladi. Paradigma a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat paradigmatic munosabat hisoblanadi. Tilshunoslik tarixida “paradigma” atamasi birinchi marta Ferdinand de Sossyur tomonidan XIX asr oxiri XX asr boshlarida bir-biriga o‘xshash xususiyatga ega bo‘lgan elementlarning sinfini ifodalash uchun ishlatilgan. Ferdinand de Sossyur lisoniy paradigma va paradigma a‘zolariga nisbatan quyidagi talablarni qo‘yadi:

1. Ma‘lum paradigmaga taaluqli bo‘lgan bir paradigma a‘zosi esga olinganda, paradigmanning qolgan a‘zolari ham xotirlanishi kerak. Masalan, **“ko‘rpa” desak, “to‘shak”, “bola” desak “ona”** hayolimizga keladi.

2. Har bir konkret nutq sharoitida paradigma a‘zolaridan bittasini tanlashi zarur;

3. Bir paradigma a‘zolari o‘zaro bir-biriga o‘xshash bo‘lishi bilan bir qatorda, bir-biridan farqlovchi belgilarga ham ega bo‘lishi kerak. Masalan, **“yuz”, “chehra”, “oraz”** so‘zlari bir xil a‘zoni bildirishiga ko‘ra bir-biriga o‘xshasa-da, hissiy bo‘yoqdorlik va qo‘llanilish holatiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Paradigmalar o‘rtasidagi ziddiyat keskin yoki darajalangan holatda bo‘lishi mumkin. Masalan, **“kulmoq-tirjajmoq-irshajmoq”** paradigmasi “ifoda bo‘yog‘ining ortib borishi” asosida darajalanadi.

4. Paradigma a‘zolari nutqda bir xil mavqeda kela olishi va ma‘lum o‘rinlarda bir-biri bilan o‘rin almasha olishi mumkin. Masalan, **“go‘zal”, “yoqimli”, “chiroyli”, “xushro‘y” , “latofatli”** sifatlarini olaylik. **“Sahnaning o‘rtasida xushro‘y xonanda paydo bo‘ldi, va u hammaning e‘tiborini tortdi”** ushbu gapdagi “xushro‘y” sifatini “chiroyli”, “go‘zal”, “latofatli” sifatleri bilan alishtirsak bo‘ladi. Bu o‘zgarish gapning ma‘nosiga katta ta‘sir qilmaydi.

Paradigmaga Ferdinand de Sossyur tomonidan qo‘yilgan bu talablar, mana bir asr bo‘layaptiki, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Paradigmalar ularning a‘zolari va ularning qamroviga ko‘ra katta va kichik yoki ichki va tashqi paradigmalariga bo‘linadi. Masalan, tovushlar unli va undoshlarga, unli va til oldi va til orqa unli va undoshlar esa jarangli va jarangsiz kabi turlarga bo‘linadi. Shuningdek paradigmalar qaysi lingvistik sathga mansubligiga ko‘ra ham turlarga bo‘linadi ular quyidagilar:

- a) Fonetik paradigmalar;
- b) Leksik paradigmalar;
- c) Marfologik paradigmalar;

d) Sintaktik paradigmalar.

Bular ham o‘z ichida yana turlarga bo‘linadi. Fonetik paradigmalar “Fonetika va fonologiya” bo‘limida, leksik paradigmalar “Leksikologiya va semasiologiya”, morfologik paradigmalar “Morfologiya-morfemika” bo‘limida, sintaktik paradigmalar esa “Sintaksis” bo‘limida batafsil o‘rganiladi.

Paradigmatik munosabat paradigma a‘zolari qanday xususiyatiga ko‘ra paradigmada birlashganiga qarab ham turlarga bo‘linadi. Bular quyidagilar:

- Shakli paradigmalar;
- Ma‘naviy paradigmalar
- Vazifasi o‘xshash paradigmalar.

Shakli paradigmalar shakli bir-biriga o‘xshaydi ya‘ni bitta so‘z paradigmanning asosi bo‘lib faqat uning shakli ma‘lum qo‘shimcha yoki elementlar orqali o‘zgaradi. Ma‘noda katta o‘zgarish sezilmaydi. Masalan, ko‘plik va kelishik: **child-children (bola-bolalar)**; fe‘l zamonlari: **come-comes-coming-came (kelmoq, keladi, kelyapti, keldi)** yoki sifat darajalari: **big-biger-biggest (katta, kattaroq, eng katta)**.

Ma‘naviy paradigmalar esa ma‘lum bir ma‘no ostida birlashadi. Ular sinonim yoki antonym bo‘lishi mumkin. Masalan: **xunuk odam, badbashara odam, tasqara odam yoki chiroyli xonim – xunuk xonim** kabi.

Vazifasi o‘xshash paradigmalar shakli va ma‘nosi turlicha bo‘larsa-da vazifasi bir-biriga o‘xshab ketadigan paradigmalar hisoblanadi. Bunday paradigmalar kelishiklar, egalik olmoshlari, zamon qo‘shimchalari va boshqalarni misol qilishimiz mumkin. Masalan, **his, her, my, their (uning, meningm ularning)**

Ko‘rib chiqqanimizdek paradigmatik munosabat tilshunoslikning asosini tashkil qiladi. Tilning eng kichik birliklaridan to eng katta birliklarigacha bir-biri bilan paradigmatik munosabatga kirishadi. Paradigmani o‘rganish tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki paradigma va paradigmatik munosabatlarni o‘rganish orqali tilning o‘ziga xos xususiyatlari va lisoniy birliklarning o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Ne‘matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.

Safarov, Sh. (2008). Pragmalingvistika. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. B-285

O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

Соссюр Ф.де. Труды по языкознанию. – М.,1977.